

**BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQUARISH FAOLIYATI****ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА****THE HISTORY OF CONSTRUCTION AND PRODUCTION ACTIVITIES OF THE BUKHARA SPINNING AND TEXTILE PLANT****Utayeva Feruza Xolmamatovna<sup>1</sup>, Safarov Bobomurod Sobirjon o'g'li<sup>2</sup>**<sup>1</sup>Utayeva Feruza Xolmamatovna

– Buxoro davlat universiteti, dotsenti.

<sup>2</sup>Safarov Bobomurod Sobirjon o'g'li

– Buxoro davlat universiteti, magistri

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Buxoro viloyatida tashkil etilgan to'qimachilik sanoatining yirik ip-gazlama kombinati va tumanlarda faoliyat yuritgan to'qimachilik va ip-yigiruv fabrikalari tarixi haqidagi adabiyotlar, arxiv ma'lumotlari, shaxsiy muloqotlar ilmiy tahlil qilinib, Buxorodagi ip-gazlama kombinati tarixi haqida to'xtalib o'tilgan. Buxoroda ip-gazlama kombinatining qurilishi muhim tarixiy voqea bo'ldi. Kombinat qurilishi bilan unga yaqin bo'lgan hududlarda maktablar, kasalxonalar, bog'chalar, yotoqxonalar, ishchilar uchun turar joylar, dam olish maskanlari qurilib, shahar obodonlashtirilgan. Ko'plab oilalarning moddiy shart-sharoitlarini yaxshilashga xizmat qildi. Yengil sanoatning muhim tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoati Buxoro shahrida va tumanlarida aholiga qulay joyda tashkil etildi va aholi ish bilan ta'minlangan jihatlari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье научно проанализированы литература, архивные данные и личные беседы об истории крупной прядельной фабрики текстильной промышленности, созданной в Бухарской области и истории действующих в районах текстильных и прядельных фабрик, а также об истории прядельной фабрики в Бухаре. Строительство прядельной фабрики в Бухаре было важным историческим событием. Со строительством комбината на прилегающих к нему территориях были построены школы, больницы, детские сады, общежития, дома для рабочих, базы отдыха, благоустроен город. Это послужило улучшению материального положения многих семей. Текстильная промышленность, являющаяся важной отраслью легкой промышленности, была создана в городе и районах Бухары в удобном для населения месте, проанализированы аспекты обеспечения занятости населения.*

**Abstract**

*In this article, the literature, archival data, and personal conversations about the history of the large spinning mill of the textile industry established in the Bukhara region and the history of textile and spinning factories operating in the districts are scientifically analyzed, and about the history of the spinning mill in Bukhara stopped. The construction of the spinning mill in Bukhara was an important historical event. With the construction of the combine, schools, hospitals, kindergartens, dormitories, residences for workers, recreation centers were built in the areas close to it, and the city was beautified. It served to improve the material conditions of many families. The textile industry, which is an important branch of light industry, was established in the city and districts of Bukhara in a convenient place for the population, and the aspects of providing employment to the population were analyzed.*

**Kalit so'zlar:** Buxoro, to'qimachilik, ip-gazlama, hamkorlik, fabrika, loyiha, paxta, majburiyat, mutaxassis, ishlab chiqarish.

**Ключевые слова:** Бухара, текстиль, прядение, кооперация, фабрика, проект, хлопок, обязательство, специалист, производство.

**Key words:** Bukhara, textile, spinning, cooperation, factory, project, cotton, commitment, specialist, production.

**KIRISH**

XX asrning 50-70-yillarida Buxoroda barcha imkoniyatlar hisob-kitob qilinib, to'qimachilik sanoati bazasini yaratish yirik korxonalar qurilishi kerakligi haqida Respublika hukumati tomonidan "Markaz"ga bir necha bor takliflar berilgan. Buxoro viloyati yerlari unumdor, hosildor yerlar bo'lib, shu sababli ittifoq manfaatlariga xizmat qiluvchi paxta dalalari juda katta hududlarni egallagan. Ayniqsa, 1956-yildan yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kengaytirish haqidagi hukumat qarorlaridan so'ng Buxoroning ko'p joylaridagi yerlariga ishlov berilib paxta maydonlariga aylantirilgan. Tabiatning nazari tushgan issiq hudud bo'lgan Buxoroda paxtaning oliy navi ekilgan.

Tolasi uzilmaydigan mustahkam va aynan to'qimachilikda sifati yuqori ip kalava bo'ladigan tola bo'lgan. Buxorodagi bir nechta oddiy va kichik ishlab chiqarish to'qimachilik faoliyati aholini ehtiyojini qondira olmagan. Va bundan tashqari vatanimizga ko'proq ip kalava ishlab chiqarish majburiyati yuklangan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur mavzusi mintaqaning iqtisodiyotiga hamda aholining turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatishi mavzuning naqadar dolzarbligini anglatadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarga doir izlanishlarni davri hamda ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlar;
2. Mustaqillik davrida e'lon qilingan nashrlar;
3. Xorij tajribasi va tadqiqotlari.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Respublikada yengil sanoat to'g'risida bir qancha yangiliklar yaratildi. Zamon talabi bilan respublikada yengil sanoatning hududiy tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. 1970-yil 20-apreldagi 156-sonli O'zbekiston SSR Yengil Sanoat Vazirligining buyrug'i asosida Buxoro shahrida qurilishi rejalashtirilgan ip-gazlama kombinatini tashkil etishga ruxsat berildi[1]. Va aynan Buxoroning kun chiqar tomonidan tanlangan yerning tuproq tarkibi o'rganildi. 60 gektardan ortiq maydonni mo'ljallagan holda, 1970-yil 20-apreldan reja-moliya ishlari boshlandi[2].

Qurilish ishlari boshlanib ketgandan so'ng qo'shimcha maydonlar zarurligi sezildi va maydoni 76 gektar yerda qurilish ishlari olib borilishi qo'shimcha qilib loyihaga kiritildi. Bunday katta to'qimachilik sanoati korxonasini ishga tushirish uchun 13-15 mingga yaqin ishchi va xizmatchilar ikki-uch navbatda ish olib borishlari belgilangandi. Ish tez va sifatli bo'lishi uchun Toshkent, Chirchiq, Navoiydan, sobiq ittifoq hududidan va Chilyabinskiydan quruvchilar va mutaxassislar qurilish ishlariga jalb qilindi[3].

Ko'mirchi va montajchilar, binokorlar 1-yigiruv to'quv fabrikasini va ip-kalavani bo'yash fabrikalarini foydalanishga topshirish uchun kunni tunga ulab mehnat qildilar. Korxonaga 16 ming tonna metall konstruksiyalari sarflandi. Buxoro ip-gazlama kombinati montajchilariga vaqtincha kelib ishlaydiganlarga soatbay 1 hissa ishlaganlarga 46 so'm, 4 tiyin va 40 foiz mukofot puli (premiya) berilgan[4].

1971-yil 29-noyabrdagi Buxoro ip-gazlama kombinatining 55-sonli buyrug'i asosida kombinatning mas'ullari mas'uliyatlarini belgilab oldilar. N.I.Mixalkov moliyalashtirish va rejalashtirish bo'yicha, I.Y.Zuyev qurilish loyiha hujjatlari bilan ta'minlovchi bosh muhandis, X.D.Fozilova kadrlarni ishga tanlaydi va mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash uchun mas'ul qilib tayinlandilar[5]. Korxonaning xodimlar masalasi bo'yicha o'rinbosari X.D.Fozilova zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklangandi. Kun davomida Farg'ona, Namangan va boshqa viloyatlardan 100 dan ortiq kishilar Buxoro to'qimachilik kombinati qurilishida ishlash uchun keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. To'qimachilik shaharchasida bunyod etilishi zarur bo'lgan ishlaydigan mutaxassislar istiqomat qilishlari uchun turar joy, magazin, maishiy xizmat korxonalari, bolalar bog'chasi, maktablar qurilishi boshlandi. Jumladan, 1973-yilning fevralida quruvchilar korxonasi ichidagi issiqlik tarmoqlarini qurishga kirishadilar. 1973-yil fevral oyining oxirida kombinatning birinchi majmuasi ishga tushirilish jarayonida, kutilmagan voqea sodir bo'ldi, 1973-yilning 20-fevral kuni payvandlash paytida yong'in sodir bo'lib, ehtiyotsizlik yong'inga sabab bo'ldi va yong'in 40-45 minut davom etdi. Yangi qurilayotgan kombinat obyekti yong'in natijasida katta zarar ko'rdi. Hukumat tomonidan kombinat quruvchilari va bunyodkorlariga bu falokatdan keyin qurilishni qaytadan boshlash, yong'in asoratlariga barham berish, obyektini belgilangan muddatda foydalanishga topshirish amaliy vazifa qilib qo'yildi. Nazir Rajabov boshliq qurilish brigadasi jon-jahdi bilan yana ishga kirishdi[6].

1973-yil 29-dekabr kuni Buxoro ip-gazlama kombinati tarixida soat 14 dan 30 minut o'tganda markaziy ta'mirlash ustaxonasining majlislar xonasida 150 mingta urchiq xamda 1600 ta tikuv stanogini ishga tushirish haqidagi aktini davlat komissiyasi imzoladi. Davlat komissiyasi a'zolaridan O'zbekistonning yengil sanoat vazirining o'rinbosari A. S. Soqiyev, qurilish direktori S.B. Baratov 4 GPN (4-son Davlat loyihalashtirish instituti)ning bosh loyihachisi O.N. Pogrobinskiy va boshqalar bor edi[7]. "O'rta Osiyoda ulkan sanoat qurilishi hisoblangan bu korxonasi faqat ish hajmi

## TARIX

bilangina emas, balki texnologik miqdori jihatdan ham yuqori ko'rsatkichlarga albatta, erishishi va ajoyib qurilish Buxorodagi to'qimachilik sanoatining rivoji uchun muhimligi ta'kidlangan"[8].

Birinci yigiruv-to'quv fabrikasi ishga tushishi bilan kombinatning birinchi korxonasi va unga aloqador bo'lgan binolarni foydalanishga topshirish uchun 25 million 665 ming so'm kapital mablag' ajratilgan, shundan 16 million 665 ming so'm bevosita qurilish ishlariga sarflangan.

Butun umrini ish faoliyatini Buxoroda to'qimachilik sanoati rivojiga bag'ishlagan Mahmud Bozorovich Zokirov 1949-yil 2-martda Kogon tumanida tug'ilgan. 1971-yil 15-avgustda Buxoro shahrida ip-gazlama ishlab chiqarish kombinati qurilish direksiyasi tomonidan Buxoro ip-gazlama kombinati ("XBK")ga taklif etilib, 1971-1973-yillarda "Ip-gazlama" kombinati qurilish direksiyasida ishlagan[10].

1973-1979-yillarda kombinat kapital qurilish bo'limida bosh muhandis bo'lib ishlagan. 1980-yil 12-noyabrda M.B.Zokirovga Respublikaning yengil sanoat tizimida uzoq yillar benuqson ishlagani va yangi to'qimachilik sanoati korxonasini ishga tushirishni tezlashtirishda faol qatnashgani uchun O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi nomidan "Faxriy yorliq" bilan mukofotlangan. 1986-yil 23-mayda O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat vazirligining birlashma, korxonasi va tashkilot ishchilari, injener-texnik xodimlarini "O'n birinchi besh yillik" 1981-1985-yillarda topshiriqlarni bajarishdagi muvaffaqiyatlari uchun Orden va medallari bilan mukofotlash to'g'risidagi Farmoniga binoan "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlangan[11].

Buxoro to'qimachilik kombinati 1980-yillarda O'rta Osiyoda yetakchi o'rinlarga chiqmoqda edi. Belgilangan rejalarning ortig'i bilan bajarilishi va eksport salmog'ining o'sishi gigant korxonani yanada kengaytirish imkoniyatini taqozo qilardi. Tumanlarda qulay joy va imkonidan kelib chiqib to'qimachilik sanoatining filiallarini tashkil qildi.

Vobkent tumanida 1980-yil oktyabr oyida to'quv fabrikasi aholi zich yashaydigan tuman markazida qurilishi boshlangan edi. Qurilish ishlariga Buxoro to'qimachilik kombinatini qurgan 163-qurilish tresti rahbarlik qildi. Qurilish ishlari bilan bir vaqtda Vobkent to'quv fabrikasiga malakali ishchi xodimlarni tayyorlash uchun tuman markazida Buxoro shahridagi 100-sonli hunar-texnika bilim yurtining filiali tashkil etildi. Tuman markazidagi va qishloqlardan yosh yigit-qizlar tikuvchilik va dastgohlarni sozlovchi ustalar hamda elektr ustasi kabi kasblar bo'yicha ishchi xodimlar tayyorlash ishlariga kirishilgan.

Vobkent shahridagi to'quv fabrikasi filiali xodimlari uchun turar-joy uchun 200 o'rinli yotoqxonasi, 280 o'rinli bolalar bog'chasi barpo etish maqsadida Vobkent tumanidan Vobkent shahridagi to'quv fabrikasi filiali xodimlari uchun uy-joylar uchun yer ajratilgan[12]. 1982-yil yanvar Vobkent to'quv fabrikasi ishga tushirildi.

Vobkent to'quv fabrikasi uchun ip-kalava viloyatdan yoki G'ijduvon ip-kalava yigiruv fabrikasidan olib kelinar edi. Aholini ish bilan ta'minlash va vaqtni tejash maqsadida Vobkentni o'zida ip-kalava yigiruv fabrikasini qurish uchun Buxoro xalq deputatlari kengashi raisi Y. Narzullayev rahbarligida 1983-yil 13-sentyabrda loyihalash uchun joy tanlash to'g'risida kelishib olinadi. To'quv fabrikasining janubiy tomonida Vobkent ip-kalava yigiruv fabrikasi qurilishini rejalashtirdilar[13]. Shuningdek fabrika ishchi va xizmatchilar uchun 24 xonadonga mo'ljallangan ikki qavatli uy hamda 10 ta xonadon uchun kottej uylari qurilishi boshlandi.

1986-yil noyabr oyida Vobkent ip-kalava yigiruv fabrikasi ish faoliyatini boshladi. Ancha qiyinchiliklar ortda qoldi. Sababi, ip-kalavani G'ijduvondan yoki Buxorodan olib kelib Vobkent to'qimachilik fabrikasida to'qilar edi.

Buxoro to'qimachilik fabrikasining filiali sifatida G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi qurilishi 1981-yilda boshlangandi. Aynan G'ijduvon tanlanganligiga sabab, mintaqaning aynan shu qismidan asosiy transport infratuzilmalari o'tgan va aholi zich bo'lib yashardi. Viloyatning asosiy transport va iqtisodiy mintaqasi, yo'lagi yoki tarixiy-geografik o'qi bo'lganligi tufayli bunday hududda fabrika qurilishiga ehtiyoj tug'ilgandi[14]. G'ijduvonda filialning tashkil etilishi aholi uchun ham qulayliklarni yaratdi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi bilan bir qatorda oradagi masofani ham yaqinlashtirdi.

G'ijduvon tuman markazidan Buxoro to'qimachilik korxonasining G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasi filialini qurish uchun G'ijduvon tumani ijroiya qo'mitasi raisi M.Maqsudov bilan hamkorlikda "Guliston" kolxozi yerlaridan yer maydoni ajratildi [15].

1982-yilda Buxoro to'qimachilik kombinatining G'ijduvondagi yigiruv fabrikasiga 33936 dona yigiruv dastgohlari keltirildi. Mexanika va asbob-uskuna zavodi, umumiy ovqatlanish

boshqarmasi qurildi. Qurilish ishlari bilan bir qatorda yigiruv fabrikasi uchun malakali kadr tayyorlash ishlari ham olib borildi. G'ijduvon shahar markazida 100-sonli kasbiy ta'lim maktabi bo'lib yigiruv guruhi talabalari Buxoro to'qimachilik kombinatida amaliyotni o'tab, mahoratini oshirishardi. Shu tariqa G'ijduvonda o'z fabrikasi uchun ishchi xodim va kerakli kadrlarni tayyorlashni tezlashtirib yubordi.

1981-yil boshlangan qurilish ishlari juda shiddat bilan olib borildi va bir yarim yilda ya'ni, 1983-yil qishda G'ijduvon yigiruv fabrikasi ishga tushirildi [16]. G'ijduvon yigiruv fabrikasida 1980-1982-yillarda 900 dan ortiq ishchi xodimlar ishlardi.

G'ijduvonning o'zida to'quv fabrikasi qurilishi haqida bir-necha bor yig'ilishlarda takliflar kiritilgan edi va nihoyat, xalq talabi e'tiborga olindi. 1984-1985-yillarda G'ijduvon "To'quv fabrikasi" qurilishi "G'ijduvon yigiruv fabrikasi" yonidan boshlandi. Sababi ip kalava viloyatga olib ketilar edi va bunga bilan biroz vaqt ham mablag' sarflanardi. Bundan tashqari G'ijduvon ahli mehnatkash xalq, ilmga va hunarga intiluvchan bo'lganligi, aholi gavjumligi mutaxassislar yetishib kelayotganligini ham hisobga olinib, "To'qimachilik fabrikasi" qurilishi boshlab yuborildi. 1985-1986-yillarda "G'ijduvon ip-yigiruv" va "G'ijduvon to'qimachilik" ikkala fabrikaning ham ish faoliyati qizg'in kechdi. U yerda 1,5 mingdan ortiq ishchilar mehnat qilgan, bundan tashqari masofani hisobga olib [17], 100-sonli kasbiy ta'lim maktabining 60-70 ta talabalarni 2-3 ta avtobusda G'ijduvondan Vobkent to'qimachilik fabrikasiga olib borilib, tayyorlov sexi, yigiruv sexi, ip kalavalash sexlarda, to'qimachilik stanoklarida amaliyot o'tardi, tajriba orttirardi hamda to'quv dastgohlarini ishlatishni o'rganardi.

G'ijduvon yigiruv-to'quv fabrikasida ish uch smenada olib borilgan. Kechqurungi navbatda ishlaydiganlarga qo'shimcha haq to'langan. Ish staji, ma'lumotiga va ish jarayoni va smena(navbati)ga qarab haq to'langan.

Talab va ehtiyojga qarab, Qorako'l yigiruv fabrikasi qurilishi aynan 1985-yillarda rejaga kiritilib, 1986-yilda tezlik bilan qurib bitkazildi. 1987-yilda ishga tushirildi. Aynan, Qorako'l ipakdek mayin paxta tolasini tarashlashga moslashtirilgan fabrika edi. Ingichka va uzun tolali ipni qayta tarash ishi murakkab bo'lib, ishchi soni ko'p talab etilardi.

1987-1989-yillarda Qorako'l yigiruv fabrikasi ishchilarini tajribasini orttirish va malakali kadrlar tayyorlash uchun Toshkent to'qimachilik fabrikasi va oliy dargohlar bilan ham hamkorlik o'rnatdilar.

1987-yillarda 500 kishi 1990-yillarda 600 kishi ish bilan ta'minlangan. Uzoqdan qatnaydiganlarga avtobuslar tashkil etilgan edi. To'rtta avtobus fabrika ishchilariga xizmat qilardi. Ipni Buxoro shahriga yetkazib berishda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish maqsadida va aholini ish bilan ta'minlash, bu tumanda yetishtirilgan paxta navining sifati jahon bozorida xaridorgiriligini hisobga olib, Olot tumanida to'quv fabrikasi ishga tushirilishi tezlashtirildi.

Olot to'quv fabrikasining ham o'ziga yarasha tarixi bor. Qo'shni Turkmanistonga boriladigan katta magistral yo'lining o'ng tomonidagi bu joy bo'm-bo'sh, faqat ekinzor maydonlari edi. Hayot taqozosi bilan qarabsizki, qisqa vaqt ichida katta to'quv fabrikasi zamonaviy bino qad ko'tardi [18].

Olot to'quv fabrikasi 1984-yilda loyihalashtirilgan va 1985-1987-yillarda qurilish ishlari olib borildi. Olot tuman markazida Xalfa qishlog'ida qurilish loyihasi asosida qurildi. Qurilish ishlari 1987-yilda tugatilib, avgust oyida to'liq ishga tushirilib, foydalanishga topshirildi. Murakkab texnologiya, zamonaviy asbob uskunalar keltirildi. Ko'plab olotlik yigit-qizlarga yengil sanoatga doir kasb hunarlar o'rgatildi. Fabrika ma'muriyati va ishlab chiqarish binolari bilan yonma-yon odamlar istiqomat qiladigan to'rt qavatli turar joy binosi qurilishi tezlashtirildi.

Buxoro texnologiya oliy dargohining talabalari ya'ni, bitiruvchi kurslari amaliyotni Olot to'quv fabrikasida o'tash uchun yuborilar edi. Ozarbayjondan, Samarqanddan talabalar ham amaliyotga kelishardi. Ularga amaliyot jarayonida mukofot pullari berilgan.

Asosan fabrikada o'zbek, turkman, rus, ozarbayjonlar ishlardi. 1988-yil 7-dekabrda Armanistonning shimoliy hududlarida kuchli zilzila sodir bo'ldi. 11-dekabrda Buxoro to'qimachilik kombinati va filiallaridagi fabrikalar jamg'armalaridagi mablag'laridan yordam sifatida zilzila bo'lgan hududga dori-darmonlar, kiyim-kechaklar, sochiqlar yubordilar. Olot to'quv fabrikasi ishchilari ham bir kunlik ishlagan mablag'larini zilziladan talofat ko'rganlar uchun tashkil etilgan jamg'arma hisobiga o'tkazdilar. Xuddi shunday voqea 1989-yil 23-yanvarda Tojikistonda kuchli zilzila bo'ldi.

## TARIX

Qardosh xalqlarga yordam berish an'anasida Olot to'quv fabrikasi ishchi masterlari, mexaniklar ham bir kunlik oyliklarini jamg'armaga o'tkazdilar va beminnat yordamini ayamadilar.

To'quv, yigiruv fabrikalarida Buxoro to'qimachilik kombinati tomonidan berilgan rejalarni bajarish uchun ish jarayonlari yaxshi tashkil etildi. Albatta, G'ijduvon, Vobkent, Qorako'l, Olot tumani fabrikalarda rejani ortig'i bilan bajarish uchun uch navbatli ishlar, ya'ni tun u-kun ishlar amalga oshirildi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun Buxoro hududida paxta maydonlari hisobsiz kengaytirildi. Ittifoq respublikalaridan Buxoro to'qimachilik sanoatiga buyurtmalar ko'plab tushib turganligi sababli buyurtmalarni bajarish uchun tumanlardagi filiallarga ham rejalarni bajarish mas'uliyati yuklangan. G'ijduvon, Qorako'l tumanidagi paxta tozalash zavodlarida 1989-1990-yillar ingichka tolali paxta navini rejadani ortiq qilib bajarilganligi ta'kidlangan [19]. Bu esa to'qimachilik salohiyatiga yetarli paxta tolalari mavjudligidan darak beradi. Maktablar, kasalxonalar, korxonalaridan buyurtmalar asosida viloyat do'konlarini to'qimachilik matolari va tayyor maktab formalari, bog'chalar uchun sochiqlar, kasalxonalar va tibbiyot markazlari uchun ust-boshlar tikib aholi ehtiyoji uchun xizmat qildi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Buxoroda ip-gazlama kombinatining qurilishi muhim tarixiy voqea bo'ldi. Kombinat qurilishi bilan unga yaqin bo'lgan hududlarda maktablar, kasalxonalar, bog'chalar, yotoqxonalar, ishchilar uchun turar joylar, dam olish maskanlari qurilib, shahar obodonlashtirilgan. Ko'plab oilalarning moddiy shart-sharoitlarini yaxshilashga xizmat qildi.

O'zbekistonda paxta maydonlarining kengaytirilishi natijasida, viloyatlarda to'qimachilik sanoatini tashkil etish imkoniyati yuzaga kelgan. O'zbekiston paxtadan ip-kalava va gazlama yetkazib beruvchi hududga aylantirilgan. Aynan, Buxoro hududida yetishtirilgan paxtadan tayyorlangan gazlamalar sifati yuqoriligi bilan ajralib turganligi sababli, Buxoroda ip-gazlama kombinati qurilishi tezlashtirilgan. To'qimachilik sanoatida yetakchi o'rinlarda turgan davlatlarning tajribalari Buxoro to'qimachilik sanoatiga kirib kelishi juda katta yutuqlarga sababchi bo'ldi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy arxivi, R-1624-fond, 1- ro'yxat, 24- yig'ma jild, 124-varaq. (National Archives of Uzbekistan, fund R-1624, list 1, volume 24, sheet 124)
2. O'zbekiston milliy arxivi, R-2792-fond, 1- ro'yxat, 28- yig'ma jild, 64-varaq.(National Archives of Uzbekistan, Fund R-2792, List 1, Volume 28, Sheet 64)
3. Shodiyev N. Bunyodkor shaxsiyati // Hayot va iroda. – Toshkent: "Tafakkur", 2019. – B. 104.(Shodiyev N. Builder's personality // Life and will. - Tashkent: "Tafakkur", 2019. - P. 104)
4. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1-fond,1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 19-varaq.(State archive of Bukhara region. Fund 1, list 1, volume 2, page 19)
5. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 70-varaq.( State archive of Bukhara region. Fund 1, List 1, Volume 1, Sheet 70)
6. Rajabov Q. Nazir Rajabov. (Tarixiy esse). Toshkent; 2021.-B.20.( Rajabov Q. Nazir Rajabov. (Historical essay). Tashkent; 2021.-B.20)
7. To'qimachilik giganti // "Yosh Leninchi" 1973-yil 31-dekabr.(Textile giant // "Yosh Leninchi" December 31, 1973)
8. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1236-fond,1-ro'yxat, 36-yig'ma jild, 109-113-varaqlar.(State archive of Bukhara region. Fund 1236, list 1, volume 36, sheets 109-113)
9. Buxoro viloyat davlat arxivi. 1236-fond, 1-ro'yxat, 45-yig'ma jild, 1-varaq.(State archive of Bukhara region. Fund 1236, List 1, Collection Volume 45, Sheet 1)
10. Mahmud Bozorovich Zokirov bilan shaxsiy muloqot (2022-yil 5-martda bo'ldi.). (Personal conversation with Mahmud Bozorovich Zokirov (happened on March 5, 2022.)
11. Yuksak mukofot muborak // Buxoro haqiqati.,1986-yil,11-iyun.(The truth of Bukhara, June 11, 1986)
12. Vobkent tuman davlat arxivi 157-fond, 1 - ro'yxat, 696- yig'ma jild, 41-42 –varaqlar.(Vobkent district state archive fund 157, list 1, collection volume 696, sheets 41-42)
13. G'ijduvon tuman davlat arxivi.(hokimiyat qarorlari) 3-fond, 2-ro'yxat, 1377-yig'ma jild, 86-varaq.(Gijduvan district state archive. (decisions of the authorities) fund 3, list 2, volume 1377, sheet 86)
14. Rajabov Q., Rashidov U., Rashidov O. G'ijduvon tarixi. Toshkent: Tafakkur, -2016.-B. 41. (Rajabov Q., Rashidov U., Rashidov O. History of Gijduvan. Tashkent: Tafakkur, -2016.-B. 41)